MAHALLIY BUDJET JARAYONIDA JAMOATCHILIKNING FAOL ISHTIROKINI BAHOLASH TARTIBI.

Karimov Ilhom Anorboy o'g'li

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi professori

Received: 16.08.2025
Revised: 18.08.2025
Accepted: 19.08.2025

Key words:

mahalliy budjet, jamoatchilik ishtiroki, budjet jarayoni, shaffoflik, baholash tartibi, davlat boshqaruvi, ishtirokning mezonlari.

Abstract

Ushbu maqolada mahalliy budjet jarayonida jamoatchilikning faol ishtirokini baholash tartibi tahlil qilinadi. Jamoatchilikning budjet jarayonlariga jalb qilinishi davlat boshqaruvida shaffoflikni oshirish va qaror qabul qilish sifatini yaxshilash uchun muhim omil hisoblanadi. Maqolada ishtirok etishning turli shakllari, baholash mezonlari va indikatorlari ko‘rib chiqiladi hamda ularni samarali qo‘llash usullari tavsiya qilinadi. Shuningdek, jamoatchilik ishtirokini rag‘batlantirish va uning natijadorligini oshirishga oid takliflar keltiriladi.

Jahon amaliyotida keng qo‘llanilayotgan partisipator budjetlashtirish tajribasi turli mamlakatlarda metodologik jihatdan bir-biriga juda o‘xshash bo‘lib, uning asosiy mazmuni keng jamoatchilikni budjet mablag‘lari sarflanishida ishtirok etish va qaror qabul qilishga jalb qilishdan iborat.

Partisipator budjetlashtirish birinchi marta 1989 yilda Braziliyaning Porto Alegri shahrida budjet mablag‘larini sarflashning ustuvor yo‘nalishlarini belgilashda qo‘llanilgan va ijtimoiy tengsizlikka qarshi kurash vositasi sifatida joriy etila boshlangan. Natijada, Braziliya tajribasi Lotin Amerikasiga, keyin esa Yevropaga tarqalib, XXI asrda bu amaliyot Afrika, AQSh, Xitoy va Janubi-Sharqiy Osiyoda amalga oshirildi. Butun dunyoda partisipator budjetlashtirish amaliyotining rivojlanishi fuqarolar tomonidan eng dolzarb hisoblangan hudud muammolarini hal qilishda davlat moliyasini birgalikda boshqarish ehtiyoji

paydo bo‘lishi bilan izohlanadi.

2021 yildan O‘zbekistonda xorij mamlakatlarning ilg‘or tajribalarini o‘rgangan holda jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan budjet modeli – “Tashabbusli budjet” ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Shuningdek, tashabbusli budjet jarayonini huquqiy jihatdan mustahkamlovchi bir qator normativ huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Bugungi kunda ushbu tizim aholiga davlat moliyasini boshqarishda dahldorlik, ochiqlik va shaffoflikni ta’minlash borasida ta’sirchan vosita sifatida hizmat qilmoqda.

Tashabbusli budjet tizimi fuqarolarning joylardagi dolzarb muammolarni hal etishiga hamda budjet jarayonida faol ishtirok etishiga zamin yaratib, aholini qiynab kelayotgan ko‘plab muammolar ushbu tizim orqali o‘z yechimini topmoqda.

Tashabbusli budjet islohotlari doirasida O‘zbekistonning 2025-2027 yillarga mo‘ljallangan fiskal strategiyasi5 muhim ahamiyat kasb etadi. Fiskal strategiya doirasida tashabbusli budjet tizimini doimiy takomillashtirib borish, jumladan, nazorat instrumentlarini kengaytirish, jamoatchilik nazoratini yanada kuchaytirish, hududiy hokimliklar mas’uliyatini oshirish, majburiy ovoz to‘plashga qarshi kurashish, “aralash moliyalashtirish” amaliyotini joriy etish rejalashtirilgan. Bularning barchasi tashabbusli budjetlashtirishni yanada rivojlantirish uchun zarur.

Tashabbusli budjet loyihalarini amalga oshirish ko‘lamini kengaytirish maqsadida tashabbuskorlar ovoz yig‘ishga sarflayotgan mablag‘larni loyihani moliyalashtirish uchun yo‘naltirish *(fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi maxsus g‘azna hisobvarag‘iga)*, birgalikda moliyalashtirish, kraudfanding, diaspora mablag‘lari, korporativ xayriya va boshqalardan foydalanish.

Xususan, birgalikda moliyalashtirishda loyihalarga budjetdan loyiha qiymatining 85 foizi miqdorida mablag‘ ajratiladi. Loyiha qiymatining qolgan 15

foizi birgalikda moliyalashtirish orqali, tashabbuskorlar, tadbirkorlar hamda mahalla budjeti mablag‘lari orqali ta’minlanadi.

Bunda to‘plangan ovoz va yo‘naltirilgan mablag‘larga nisbatan 70 ga 30 vazn, ya’ni tuman miqyosida loyiha uchun eng ko‘p ovoz to‘plangan loyihaga 70 ball (qolgan loyihalarga beriladigan ball to‘plagan ovoziga mutanosib ravishda kamayib boradi), Birgalikda moliyalashtirish mablag‘lari miqdori uchun 30 ballgacha beriladi.

Birgalikda moliyalashtirish mablag‘lari miqdori loyiha qiymatining 15 foizidan oshmasligi kerak, bunda shakllantirilgan har 1 foiz mablag‘lar uchun 2 balldan beriladi. Birgalikda moliyalashtirish mablag‘lari fuqarolar, yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda yuridik shaxslarning ixtiyoriy ravishda beriladigan pul mablag‘lari, mahalla budjeti mablag‘lari hisobidan shakllantiriladi.

Bunda, budjet tashkilotlarida ishlovchi xodimlarning ish haqlari hisobidan mablag‘larni majburiy shakllantirishga yo‘l qo‘yilmaydi, agarda ushbu holat aniqlanganda mazkur loyihaning tashabbusli budjet jarayonidagi ishtiroki to‘xtatiladi.

Har bir loyiha to‘plagan ballar quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi, bunda yig‘ilgan ballar ovozlar soni eng ko‘p bo‘lgan loyihaga nisbatan proporsional bo‘lishi, hamda birgalikda moliyalashtirish miqdori hisobga olinishi ta’minlanadi:

$$\text{Балл}_i = \frac{V_i}{V_{max}} \times S + C_f$$

Bunda: Ball_i – loyihaga beriladigan umumiy ball miqdori; V_i – i loyiha uchun berilgan ovozlar soni; V_{max} – eng ko‘p ovoz yiqqan loyihadagi ovozlar soni; S – erishish mumkin bo‘lgan maksimal 70 ball; C_f – birgalikda moliyalashtirishga beriladigan ball miqdori va u quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$C_f = \frac{CFC}{PV} \times 200$$

CFC – loyiha uchun birgalikda moliyalashtirish mablag‘lari miqdori (Co- Funding Contribution amount); PV – loyiha qiymati.

Birgalikda moliyalashtirish mablag‘lari miqdorining loyiha qiymatiga nisbati $0 \leq CFC/PV \leq 0{,}15$ oralig‘ida bo‘lishi shart, ya’ni birgalikda moliyalashtirish mablag‘lari uchun ixtiyoriy ravishda beriladigan pul mablag‘lari umumiy summasi loyiha qiymatining 15% dan oshmasligi shart.

Misol uchun: Toshkent sh. Yunusobod tumani Mingchinor mahallasi, Lolazor ko‘chasida qiymati 900,0 mln so‘m bo‘lgan ko‘cha chiroqlarini o‘rnatish loyihasi ovoz berish jarayonida 3200 ta ovoz bilan tumanda uchinchi o‘rinni egallagan (eng ko‘p ovoz yig‘gan loyiha 3500 ovoz olgan), birgalikda moliyalashtirish miqdori (CFC) 117,0 mln so‘mni tashkil etdi (loyiha umumiy qiymatiga nisbatan 13%). Bunda mazkur loyihaning to‘plagan balliquyidagicha hisoblanadi:

$$\text{Балл}_i = 70 * \left(\frac{3200}{3500}\right) + \left(\frac{117}{900}\right) * 200$$

Loyiha berilgan ovozlar bo‘yicha 64 ball, birgalikda moliyalashtirish miqdori uchun 26 ball, jami 90 ball to‘plagan.

Birgalikda moliyalashtirish mablag‘lari tegishli mahalla maxsus g‘azna hisobvarag‘ida to‘planadi va faqatgina loyiha g‘olib deb topilganda mahalliy budjet fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi maxsus g‘azna hisobvarag‘iga o‘tkazib beriladi. Loyiha g‘olib deb topilmagan taqdirda esa tashabbuskorlar tomonidan yig‘ilgan mablag‘lar mahalla maxsus g‘azna hisobvarag‘ida saqlanadi, va tashabbuskorlarning roziligi bilan keyingi mavsum loyihalari uchun birgalikda moliyalashtirish mablag‘lari hisobiga o‘kazilishi yoki ularning talablariga binoan qaytarilishi mumkin. Birgalikda moliyalashtirish mablag‘lari evaziga iqtisod

qilingan mablag‘lar hisobidan keyingi o‘rinlardagi loyihalarni moliyalashtirish imkoni yaratiladi.